O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
**Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi**

Qo‘lyozma huquqida

**YULDASHEV ABDULAZIZ**

# O`ZINI-O`ZI BOSHQARISH O`RGANLARINI ERKINLASHTIRISH ISLOHATLARI

5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY IShI**

Ish rahbari: Katta o`qituvchi: t.f.n.N.Alimova

**Andijon – 2016 yil**

MUNDARIJA:

**Kirish**.....................................................................................................................3

**I. BOB. O`ZINI O`ZI BOSHQARISH O`RGANLARI – FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSI.**

I. 1. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining xuquqiy asoslari..............8

I. 2. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining asosiy tamoillari............26

**II. BOB. FUQAROLARNING O`ZINI-O`ZI BOSHQARISH ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI.**

II.1. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholining asosiy turmush ehtiyojlari sohasini taminlsh borasidagi vazifalari........................................................................................41

II.2. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining jamoat tartibini taminlashdagi va boshqarishning huquq va manfatlarini ximoya qilishdagi vazifalari...................................................................................................56

**Xulosa.**...................................................................................................................65

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**...................................................................70

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik biz uchun avvalo o’zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz-avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g’urur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta’kidlash zarur.

Mustaqillik yillarida maksad qilib qo’ygan mar- ralarni, avvalo, eng taraqqiy topgan demokratik dav- latlar qatoriga ko`tarilish, farovon va badavlat hayot kechirish, xalqaro maydonda o’zimizga munosib o’rin egallash yo’lida qo’lga kiritgan yutuqlarni sarhisob kilish uchun «Kecha kim edigu bugun kim bo’ldik?» degan savolga xolisona javob bergandagina kop narsa biz uchun ayon bo’ladi.[1]

Mustaqillik degani biz uchun eng avvalo:

ona zaminga egalik, yer osti va yer usti boyliklarimizni o’zimiz, avvalambor, Respublikamizda yashayotgan aholi uchun ishlatish, boshqacha aytganda, o’z takdirimizni o’zimiz hal qilishimiz;

milliy demokratik davlat tuzumini xalqimizning mustaqil irodasi bilan tashkil etish. O’zbekiston tuprog’ida yashaydigan har bir inson uchun, uning millati, dini va e’tiqodiga qaramasdan, munosib hayot yaratish, inson haq-huqukdarini himoya qilish;

xalqimizning, el-yurtimizning kelajagini mustaqil belgilash, bo’lg’usi avlodlarga to’kis takdirlar yaratish va xorij bilan, u yoqdagi vatandoshlar bilan hech qanday vositachilarsiz munosabat o’rnatish demakdir.[2]

Bugun, oradan necha yillar o`tganidan keyin o`ziga xos milliy taraqqiyot yo`lini tanlagan dastlabki davrni ko`z oldimizga keltiradigan bo`lsak, bizning islohotlar siyosatimizda ma`naviy mezonlar doimo hal qiluvchi omil bo`lib

---

[1]Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Toshkent: «O’zbekiston», 2015.- B.71,72

[2] Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikga erishish ostanasida. –Toshkent: O `zbekiston, 2011.-B.414.

kelayotgani yanada yaqqol ayon bo`ladi. [3]

O`zini-o`zi boshqarish organlari bir necha asrlar ilgari davlattning quyi maxalliy boshqaruv funksiyalarni bajaruvchi tashkilotlar sifatida shakillangan bo`lsa, ular XX asrga kelib fuqarolik jamiyati institutiga aylanishgacha bo`lgan katta tarixiy rivojlanish yo`lini bosib o`tgan. G`arb siyosatshunoslarining fikricha, “O`zini-o`zi boshqarish” tushunchasi davlatga nisbatan fuqarolar jamoalari mustaqilligining shakillanishi bilan bog`liqdir. Bu o`zini –o`zi boshqarish institutiga xos imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy madaniyati unsurlarini shakillantirishning xam beqiyos omili hisoblanadi.

Maxalliy o`zini-o`zi boshqarish (yoki (ing) – “o`zini-o`zi boshqarish”) deb. U yoki bu ma’muriy-xududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma’muriy aparati tamonidan amalga oshiriladigan maxalliy ahamiyatga ega bo`lgan ishlarni boshqarishiga aytiladi.

O`zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” siyosiy qurilishi dasturining bosh yo`nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini maxalliy hokimyat organlariga jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishdan iboratdir.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrdagi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demakratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli maruzasida  takidlaganlaridek “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish instituti maxalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko`lamini kengaytirish, davlat hokimyati va boshqaruv organlari bilan o`zaro yaqin munosabatlarni taminlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”.[4]

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi bu – fuqarolarning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan, rivojlanishning

---

[3] I.A.Karimov. YUksak ma’naviyat engilmas kuch. –Toshkent: «Ma’naviyat». 2008-B.10.

[4]Karimov I.A “Mamlakatimizda demakratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” – Toshkent, “O`zbekiston”, 2010.-B.45.

tarixiy hususiyatlaridan, shuningdek, milliy va manaviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va ananalardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.[5]

O`zbekistonda kuchli jamiyatga o`tish davrida o`zini-o`zi boshqarish organlarini zamonaviylashtirish va erkinlashtirishga qarailgan islohatlar jarayonlari natijasida milliy ananalar va xalqaro tajribalarni umumlashtirishga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishga doir islohatlar tobora chuqurlashib bormoqda. O`zini-o`zi boshqarish organlarini erkinlashtirish sohasidagi islohatlarni yanada chuqurlashtirishda davlatningbosh islohatchi sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlari natijasida manlakatda fuqarolik jamiyatining poydevorishakillandi.

Fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroklari – muhim demokratik qadriyat sifatida har qanday mamlakatda ham o`zini-o`zi boshqarish organlari vositasida amalga oshiriladi. SHuning uchun ham demakratlashuvi va huquqiy davlat maqomiga erishuvi ko`p jihatdan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish ishlarida nechog`lik ko`p ishtirok etishlariga bog`liqdir. SHuningdek, demokratiyaning mohiyati – fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokida o`zaro tenglik bo`lishini va bu jarayonlarda doimo ozchilik huquqlarini himoya qilishni nazarda tutgan holda ko`pchilik ovozi asosida huquqiy qarorlar qabul qilinadigan o`zini-o`zi boshqarishga bo`lgan qobilligi bilan ifodalanadi.

Xozirgi davrda  O`zbekistonda o`zini-o`zi boshqarish organlari – mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig`inlari tizimining o`zini-o`zi boshqarishga doir vakolatlari ikki yo`nalishni nazarda tutadi:  birinchi yo`nalish – ma’naviy sohdagi vazifalar bo`lib, ular xalqning bir necha ming yillik tarixidagi noyob, xalqchil ananalarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iboratdir. Ikkinchisi siyosiy vazifa bo`lib o`zini-o`zi boshqarish institutlarini xozirgi davr talabiga muvofiq tarzda qaytadan tiklash bilan birga, viloyat, shahar, tuman xokimliklari vakolatlarining bir qismini o`zini-o`zi boshqarish organlaiga

[5] “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish o`rganlari to`g`risida”gi qonun. O`zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent, “Adolat” 2000. №21.-B.124-127

jumladan, mahallalarga berishdir. O`zini-o`zi boshqarish organlari mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organi sifatida bevosita davlat va jamiyat xayotiga oid bo`lgan masalalarni mustaqil ravishda hal qilish qobilyatini egallashi ularning fuqarolik jamiyati intituti sifatidagi maqomni belgilab beradi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini o`rganish bo`yicha Respublikamiz olimlari tamonidan ko`plab risola, monagrafiya va ilmiy maqolalar chop qildirilgan.

Ular quyidagilar: SH. SHri'ov[6], A. To`laganov[7], O. Husanov[8], M. Suvonqulov[9], SH. Mahmudjonov[10], S. Sidov[11], R. Bobojonov[12], S. Ollomov[13], S.Ollomov, X. Saidova[14], X. Odilqariev, M. Qirg`izboev[15] va boshqalar.

**Ishning maqsad va vazifalari**. Ishda O`zbekistonda mustaqillik yillarida o`zini-o`zi boshqarish organlarini erkinlashtirish islohatlarini taxlil qilish va umumlashtirish asosiy maqsad xisoblanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan xolda vazifalar quyidagilar:

- Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarishning huquqiy asoslarini atroflicha yoritib berish;
- Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarishi faoliyatining asosiy tamonlarini taxlil qilish va umumlashtirish;
- Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish o`rganlarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hamda aholining asosiy turmush ehtiyojlari sohasini taminlash borasidagi vazifalarini atroflicha chuqur o`rgnish;

---

6 Shri'ov Sh. Mahalla o`zini-ozi boshqarish organlarini huquqiy kafolatlari. – Toshkent, 1999.-B.23.

7 To`laganov A. Davlatxokimyatining vakillik va o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish – Toshkent, 2002.-B.27.

8 Husanov O. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. – Toshkent, 2001.-B.31.

9 Suvonqulov M. O`zbekiston Res'ublikasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish o`rganlari faoliyatining nazariy-huquqiy masalalari. Yuridik fanlari nomzodi, nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2002.-B.42.

10 Mahmudjonov Sh. Mahalla yoki o`zini-ozi boshqarish organlari bugungi kundagi faoliyatining asosiy tamoillari va yo`nalishlari. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 1-son, 2001y;

11 Saidov S. Mahalla va o`zini-ozi boshqarish organlari: Erkinlashtirish va zamonaviylashtirish. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 1-son, 2001y;

12 Bobojonov R. Fuqarolarning o`zin-o`zi boshqarish o`rganlarining rivojlanish bosqichlari. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 1-son, 2001y;

13 Ollomov S. Fuqarolarning o`zin-o`zi boshqarishi – xalq xokimyatchiligining asosi. – Toshkent, 2011.-B.57.

14 Ollomov S, Saidova X. Fuqarolarning o`zin-o`zi boshqarish huquqi: Nazarya va amalyot masalalari.–Toshkent, 2006.-B.73.

15 Odilqariyev X., Qirg`izboyev M. O`zini-o`zi boshqarish organlarini erkinlashtirish islohatlari.–Toshkent, 2011.-B.67.

- Fuqarolarning o`zin-o`zi boshqarish o`rganlarining jamoat tartibini taminlashdagi va boshqarishning huquq va manfatlarini himoya qilishdagi vazifalarni ko`rsatib berish;

**Ob`ekti va predmeti:** O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning asarlari, farmon va qarorlari ishning metodalogik asosi, mavzuga oid risola monografiya, ilmiy maqolalar matbuot va internet materyallari esa muhim manba bo`lib xisoblanadi.

SHuningdek, ishni tayyorlashda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun manbalari ham muhim manba bo`ladi.

**Ilmiy yangiligi:** Mustaqillik yillarida o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini o`rganish bo`yicha Respublikamiz olimlari tamonidan ko`plab risola, monagrafiya va ilmiy maqolalar cho' qildirilgan bo`lsada, ishning ilmiy yangiligi shundaki, biz ushbu bitiru malakaviy ishida bir guruh tatqiqodchi olimlarimiz, jumladan, SH. SHri'ov, A. To`laganov, O. Husanov, M. Suvonqulov, SH. Mahmudjonov, S. Sidov, R. Bobojonov, S. Ollomov, S.Ollomov, X. Saidova, X. Odilqariev, M. Qirg`izboev va boshqalarning tatqiqotlariga tayangan holda ularni umumlashtirib, "O`zini-o`zi boshqarish o`rganlarini erkinlashtirish islohatlari" ni alohida mavzu sifatida olib o`rgandik.

**Amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishning materyallaridan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, Oliy o`quv yurtlari o`quvchilar va talabalari O`zbekiston tarixi, O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazaryasi va amalyoti fanlarini o`rganishda hamda ma'naviy-marifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.**

Ish – Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragrf, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat bo`lib, uniing hajmi 74 sahifani tashkil etadi.

# I. BOB. O`ZINI-O`ZI BOSHQARISH O`RGANLARI – FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSI.

## I.1. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari.

Mustaqillik sharofati o`laroq mahalla o`zining real huquqiy maqomini oldi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida “SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari bo`lib ular ikki yarim yil mudatda raisni (oqsaqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi” deyiladi.[16]

1993-yilning 2-setabrida “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish to`g`risida”gi qonun qabul qilinishi nafaqat O`zbekiston, balki jahon qonunchiligi tarixida ham yangilik bo`ldi. Unda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi, jumladan, ularning vazifasi vakolatlari, fuqarolar yig`ini va raislik vakolatlari, ularning davlat hokimyati organlari bilan munosabati asoslari belgilab beriladi. Ushbu qonun yurtimiz mahallalari taraqqiyotiga katta hissa qo`shadi.

Mahalla haqida 1995-yil 21-dekabrda tasdiqlangan O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik ko`deksiga ham alohida modda kiritilgan. Bundan tashqari “Iste’molchilarning huquqlqrini himoya qilish to`g`risida”gi, “Nodavlat va notijorat tashkilotlari to`g`risida”gi, “Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to`g`risida”gi, “Fuqarolarning murojatlari to`g`risida”gi qonunlarida ham o`zini-o`zi boshqarish organlari haqida qoidalar mavjud. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich keng qamrovli islohatlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, ushbu qonun hujjatlari muntazam ravishda takomillashtirilib borilya’ti. Xususan, 1998-yil 14-a’relda “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi. Mahalla nufuzini ko`tarish, fuqarolik jamiyatining ustuvor asosi bo`lgan o`zini-o`zi boshqarish tizimini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan manaviy masala ekani bois, ushbu tizim huquqiy negizini mustahkamlash,

---

[16] O`zbekiston Res’ubliksining Konstitutsiyasi – T: 2015.-B.29.

Prezidentimiz va mamlakatning parlamentining doimiy etiborida. Oliy Majlisning 2003-yil avgust oyida bo`lib o`tgan XII- sessiyasida “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish orgaanlari tog`risida”gi qonunining qariyb 10 ta moddasiga o`zgartirish kamchiliklar kiritildi. Aytish mumkin, fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari huquqiy asosini mukammallashtirishga qaratilgan ana shu yangiliklarning barchasi 2003-yilda Vazirlar Mahkamasi tamondan tasdiqlangan “Obod mahalla yili” dasturida ko`zda tutilgan. Ayni chog`da fuqarolar yig`ini to`g`risidagi, hamda mamuriy komissiyalar to`g`risidagi nizomlar ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish orgaanlari huquqiy asosini shakillantirish va takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 10 farmoni, Vazirlar mahkamasining 8 ta qarori, 11 ta namunaviy nizom, bir qator dasturlar, yo`riqnomalar va uslubiy ko`rsatmalar ishlab chiqilgan hamda amalda tadbiq etilmoqda.[17]

1993-yil 2-sentabrda “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi organlarining faoliyati uchun aniq huquqiy asos yaratildi, va u organlarning maqomi belgilanadi. Endilikda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari vakillik va ijro etuvchi hokimyatga nisbatan demokratik pasangi bo`lish va tiyib turish tizimida masulyatli o`rin tutmoqda.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, bugungi kunda, birinchidan fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish borasidagi huquqlarini ro`yobga chiqarishda ko`maklashadilar; Ikkinchidan, o`z hududida ijtimoiy ba xojalik vazifalarini hal etish shuningdek, madaniy-oilaviy tadbirlarni o`rganish, qonunlarini ijro etishda davlat hokimyati va boshqaruv o`rganlaria ko`maklashish maqsadida fuqarolarni uyushtiradilar; Uchinchidan, millatlararo totuvlik bo`lishiga ko`maklashadilar; To`rtinchidan, o`z mulki moliyasi byudjetiga ega bo`lgan kichik korxonalar, koperativlar, ustaxonalar xunarmandchilik sexlari tashkil etadilar; Beshinchidan, oqsaqolning korxonalarga, muassasalarga, fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun ba ijaraga yer berish to`g`risidagi

[17] Saidov A. “Jaxonda yagona qonun”. Xalq so`zi 2003. 6 noyabr.

qarorlarni tasdiqlaydilar; oltinchidan, davlat ijtimoiy yordamidao`ta nochor aholiga taqsimlash va boshqa vazifalarni amalga oshiradilar.

Binobarin, fuqarolarning o`zini –o`zi boshqarish organlari tamonidan yuqorida qayd qilingan vazifalarni amalga oshirishda bu sohadagi huquqiy manbalar katta ro`l o`ynaydi. O`zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonuni fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishning manbai hisoblanadi. Bu qonunda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi manbai hisoblanadi. Bu qonunda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi munosabatlarini huquqiy tartibga solishda foydalanadigan asosiy tushunchalar va terminlarning mazmunini ochib beruvchi normalar mavjud. Mazkur qonun normalari O`zbekiston Respublikasida Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarning vakolarlarini aniq belgilab beradi. O`zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonuni normalari bilan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyati asoslari belgilangan, o`zini-o`zi boshqarishda fuqarolarning hohish-irodasi bevosita amalga oshirishning shakillari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vakolatlari, bu organlarining va ular mansabdor shaxslarning javobgarligi masalalari mustahkamlangan. O`zbekiston Respublikasining boshqa qator qonunlarida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish masalalariga aloqador bo`lgan normalar mustahkamlangan. Bu qonunlar jamlanmasiga, masalan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to`g`risida"gi qonun, "Tabiatni muhofaza qilish tog`risida"gi qonun "Mulkchilik tog`risida"gi qonun, "Mahalliy soliqlar va yig`imlar tog`risida"gi qonun va boshqa qonunlar kiradi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish huquqiy normalar bo`lgan farmonlari bu huquqning manbasi bo`ladi. Bu manbalarga, masalan, O`zbekiston Prezidentining 1996-yil 5-martdagi "Bozorlarning faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilashga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida"gi ,1996-yil 10-dekabrdagi "Bolali oilalarni davlat tamonidan qollab-quvvatlashni yanada kuchaytirishi to`g`risida"gi, 1998-yil 23-apreldagi "Fuqarolarning o`zini-

o`zi boshqarish organlarini qo`llab- quvvatlash to`g`risida”gi, 1999-yil 13-yanvardagi “aholini aniq yo`naltiradigan ijtimoiy madat bilan taminlashda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari ro`lini oshirish to`g`risida”gi farmonlari va boshqalar kiradi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105 moddasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari maqomi, saylash-saylanish shartlari, tartib vakolatlari belgilangan. SHahar, qishloq va ovullarda, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig`inlari o`zini-o`zi boshqarish organlari bo`lib, ular ikki yarim yil mudatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi. O`zini-o`zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi. Hosh, vakolat doirasi qonun bilan belgilangan fuqarolar yig`inining raislari va uning faollari qanday tartibda saylanadi? Agar shu yil noyabr, dekabr oylarida Respublikalardagi mahallalarda saylov o`tkazilishini hisobga olsak, ushbu masala yanada dolzarb ekanligini anglash mumkin. 2003-yil 6-oktabrda O`zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Kengashining “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga saylov o`tkazilishnitashkil etish to`g`risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda fuqarolar yig`inlari raislariga tuman va shahar hokimliklariga “tashkilotchilik qobilyatiga hamda aholi o`rtasidagi yuqori obro-e’tibor va hurmatga ega, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari oldida turgan vazifalarni, shu jumladan mazkur organlarga davlat hokimyati organlari vakolatlarining bir qismi bosqichma-bosqich o`tkazilishi munosabati bilan bog`liq vazifalarni, shu jumladan, mazkur organlarga vazifalarni hal etishga qodir shaxslar orasidan fuqarolar yig`inlar raislarini va ularning maslahatchilar lavozimlariga nomzodlarni tanlashda ko`maklashish” topshirilgan maskur qaror ijrosini taminlash maqsadida hozir yangi sharoitda ishlay oladigan odamlarni tanlash tadbirlari mahallalarda qizg`in davom etmoqda. “XXI asr mahallasi” konsepsiyasida takidlanganidek. Fuqarolar yig`inlari raislari (oqsaqollari) etib saylanuvchi shaxs, qoida tariqasida oily mlumotli bolishi, tashkilotchilik qobilyatiga, raxbar lavozimida ish tajribasiga, yetarli darajada bilimlarga, hurmatga ega bo`lmog`i, tashabbuskor va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlar sharoitida ishlashga

qodir bo`lmog`i zarur. Ko`rinib turibdiki, mahalla raisligiga saylanadigan shaxs bir tamonlama munosib, shu bilan birga oily ma’lumotli bolishi zarur. Mahalla yig`ini raisliklariga nomzodlarni mahalla ishchki kuchlari tanlaylaydi. Mahallada tuzilgan ishchi guruhi 5-7 kishidan iborat bolib, mahallaning ko`cha va daraxt boshlari tarkibidan belgilanadi. Ular bajargan ishlari yuzasidan mahalla boshqaruvi yuzasidan mahalla boshqaruviga emas, balki tuman komissiyasi (ishchi guruhi)ga hisob beradi. Belgilangan tartibga ko`ra, mahalla komissiyasi mahalla fuqarolar yordamida ikki va undan ortiq nomzodni aniqlab, ular bilan suhbatlar o`tkazadi va aholining ana shu nomzodlar to`grisidagi fikrlarini oladi. So`ngra qaror qabul qilib, har bir nomzod uchun maxsus so`rovnoma, tarjimai hol to`ldiriladi, keyin ularni nomzod surati bilan tuman komissiyasiga topshiriladi. Mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari o`zlarining saylanishlari va mahalliy aholining vakillari sifatidagina rasmiy o`rinlariga inoan vakillik tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyatlari aholi uchun ulkan ahamiyatga egadir. Munitsipal organlarda davlat aparatining boshqa bo`g`inlariga nisbatan byurkrotizm borishi kerak bo`ladi. Ana shu barcha fazilatlar saylanuvchi mahalliy boshqaruvn demokratiya qadriyatlaridan biriga aylantiradi. Mahalliy o`zini-o`zi boshqarish Aleksis de Tokvilning talqinicha shunday bir siyosiy intitutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo`lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O`zini-o`zi boshqarish o`rganlari siyosiy madaniiyat elementlarini shakillantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini taminlab beradi. 1985-yil 15-oktabrda Yevropa Ittifoqi tamonidan qabul qilingan “mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining oz masulligida mahalliy aholi manfatlari asosida, qonunlar doirasida davlar ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobilyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to`g`ridan-to`g`ri umumiy saylovlarda saylangan azolardan iborat kengashlar yoki majlislar o`zlariga hisobot berib boruvchi yoki ijroya organlariga ega bo`lishlari mumkin. Bu qoidalar

fuqarolar majlislariga referendumlarga yoki fuqarolar to`g`ridan-to`g`ri ishtirok etishining qonun yo`l qo`ygan boshqa shakillariga murojat etishni istisno etmaydi”.

O`zini-o`zi boshqarish organlarining jamiyat vadavlat boshqaruvidagi ornini yuksaltirish xozirgi davrda mamlaatimiz hukumati va parlamenti tamonidan olib borilyotgan islohatlarning muhum yo`nalishlaridan biridir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod mahalla yili” dasturini ishlab chiqish va amalga osirish bo`yicha “Respublika komissiyasini tuzish to`g`risida”gi farmoyishida (2002-yil 16-dekabr) ustuvor yonalish va vazifa sifatida ko`rsatilgan bandlardan biri quyidagicha ifodalanadi:

Mahallaning fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish tizimidagi eng muhim tuzilma sifatida tutgan o`rni va ro`lini aniqlash; mazkur institutning davlat va jamoatchilik xokimyati va tizimida o`z o`rnini egallashi uchun zarur shart-sharoit yaratib beradigan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Albatta, bu fuqarolik jamiyatiga xos vazifani bajarishda mahallalarning fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish va siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokining faollashuvi muhim o`rin tutishi shubhasizdir.

SHuningdek “Referendum to`g`risida” (1991y), “O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida” (1991y), “Mudofaa to`g`risida” (1992y), “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida” (1992y), “Suv va suvdan foydalanish to`g`risida” (1993y), “Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarga saylov to`g`risida” (1994y), “Fuqarolarning murojatlari to`g`risida” (1994y), “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida” (1996y), “O`zbekiston Respublikasida mamuriy-hududiy tuzilish toponomik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirish masalalarini hal etish tartibi to`g`risida” (1996y), “Davlat soliq xizmati to`g`risida” (1997y), “Vijdon erkinligi a diniy tashkilotlar to`g`risida” (1998y), “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida” (2000y), “Umumiy xarbiy majburiyat va harbiy xizmat to`g`risida” (2002y), “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida” (2003y), “Fuqarolar yigini raisi va uning maslahatchilari saylov to`g`risida” (2003y), “Halq deputatlari, tuman va shahar kengashi maqomi to`g`risida” (2004y), “Hususiy uy- joy mulkdorlarining

to`g`risida” (2008y), “O`zbekiston Respublikasi qonunlarida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlariga oid huquqiy normalar mustahkamlandi.[18]

1994-yil 14-aprelda O`zbekistonda “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonuni 29 moddadan iborat bo`lib, qonunda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish tushunchasi, ularning huquqlari faoliyatining asosiy tamoillari hududlari, organlari mansabdor shaxslarni saylash vakolatlari, komissiyalari mulk moliyaviy tamonlari oshkora akas ettirilgan.[19]

**2-modda.** Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi fuqarolarning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o`z manfatlaridan, rivojlanishning trixiy hususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va ananalardan kelib chiqqan xolda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

**3-modda**. Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovular va mahallalarda o`zini-o`zi boshqarishga doir Konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq, fuqarolar yig`inlari orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, etiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatiy nazar, bevosita hamda o`zlarining saylab qo`yiladigan vakillari orqali o`zini-o`zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir. Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

4-modda. Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsplari quyidagilardan iborat:

Demokratizm, oshkorolik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni  yechishda mustaqillik, jamoatchilik borasida o`zaro yordam.

**5-modda.** Mahallani tuzish, qo`shib yuborish, bo`lish va tugatish, shuningdek uni chegaralarini belgilash ba o`zgartirish fuqarolarning o`zini-o`zi

[18] Mirzaqulov M. hamidova N fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyati huquqiy asoslar uning takomillashuvi //Fuqarolik jamiyati. 2008. №4.-B.27, 30, 31.
[19] O`zbekistonning yangi qonunlari.– Toshkent, “Adolat” 1999. № 21.-B.114-117.

boshqarish organlarining tashabbusiga ko`ra mahalliy davlat xokimyati organlari tamonidan amalga oshiriladi.

**6-modda.** Davlat xokimyati va boshqaruv organlari fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining shakillanishi rivojlanishi uchun zarur shart sharoit yaratadilar, ularning ishlariga aralashishlariga yo`l qo`ymaydilar, fuqarolarga o`zini-o`zi booshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko`maklashadilar.

**8-modda.** Fuqarolar yig`ini organlarining va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylovhuquqlari kafolatlarini taminlagan holda, umumiy, teng va to`g`ridan- to`g`ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo`li bilan amalga oshiriladi.

**9-modda.** Fuqarolar yig`ini - fuqarolar o`zini-o`zi boshqarishning yuqori organi bo`lib, aholi mafatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi karorlar qabul qilish huquqiga egadir. Fuqarolar yig`inida 18 yoshga to`lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi.

**10-modda.** SHaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig`ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig`ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlarining vakolotlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani ozi ko`rib chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega. SHaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig`ini va shaharchadagi mahalla fuqarolar yig`ini: fuqarolar yig`ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig`ini faoliyatining asosiy yo`nalishlari bo`yicha komissiyalarning raislarini va a`zolarini saylaydi, yilning har choragida ularning xisobotini eshitadi;

Fuqarolar yig`inining taftish komissiyasini saylaydi, ular to`g`risidagi nizomni tasdiqlaydi;

Belgilangan tartibda raisning maslahatchilari va fuqarolar yig`ini kengashi devonining miqdor tartibinin belgilaydi, raisning tagdimnomasiga ko`ra fuqarolar yig`ini mas’ul kotibini tayinlaydi;

Kengash taftish komissiysi va ma’muriy komissiya faoliyatining asosiy yo`nalishlarini belgilaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi.;

Fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyat dasturini va harajatlar sistemasini, hududni kompleks rivojlantirishni taminlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yahshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

Qonunlar va boshqaqonun hujjatlarining, shuningdek o`z qarorlarining ijro etishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini otkazuvchi, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, halq deputatlari, viloyat, tuman va shahar kengashlarga saylov o`tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etadi. Xalq deputatlari viloya, tuman kengashi deputatligiga nomzod ko`rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari bo`yicha hokimyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritadi;

To`ylar va boshqa marosimlarni o`tkazish bo`yicha tavsiyalar beradi;

Yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kuzatuvchi masalalar yuzasidan hisobotlarni eshitadi. Fuqarolar yig`inlarining hisobotlar to`g`risidagi bayonnomalari tegishli viloyat va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular buu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojatlari bajarilishini nazorat qiladilar;

Atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o`z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar raxbarlarining hisobotlarini eshitadi.

Fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlarining o`z mablaglarni shakillantiradi, o`z mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Obodonlashtirish ishlarini o`tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni tamirlash, shuningdek, kam taminlangan oilalarning oilalarrning uuylari va kvartiralarini tamirlashda yordam ko`rsatish uchun aholidan ixtiyooriylik asosida mablag` yig`ish to`g`risida qarorlar qabul qiladi.;

Obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalashishlari

otkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag`laridan shartnoma asosida foydalanishto`g`risida qarorlar qabul qiladi;

O`z hududidagi ijtimoiy infra tuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shxslarning mablag`larine ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzsidan qarorlar qabul qiladi;

pul mablag`larining sarflanishi yuzasidan nazoratni tashkil etadi.

Atrof-muhitnii muhofaza qilishga koo`maklashadi;

Guzarlar barpo etishga doir masallarni ko`rib chiqadi;

Mamuuriy hududiy birliklar va mahallalarning chegaralarini o`zlashtirish, mahallalar, kochalar, maydonlar va boshqa abektlarning nomini o`zlashtirish to`g`risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

Er uchastkalari berishmasalalarini ko`rib chiquvchi tuman komissiyasiga o`z vakilini yuboradi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

SHahardagi mahalla fuqarolar yig`ini ushbu moddada nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari kam taminlangan oilalarga moddiy yordam ko`rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar taminlash masalalarini hal etadi,oilalrni davlat tamonidan ijtimoiy qo`llab –quvvatlash maqsadlari uchunqonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag`larrdn o`z o`rniida va samarali foydalanishni taminlaydi. SHaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig`ini shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig`inlariga ko`maklashadi, markazlashtirilgan tartibda ajratiladigan mablag`dan qanday foydalanayotganligi to`g`risidagi hisobotlarni eshitadi.

**20-modda.** Fuqarolar yig`inlarining rais va rais maslahatchilari 2,5 yil muddatga saylanadilar. Fuqarolar yig`inining raisi tegishli shahar, tuman hokimi bilan kelishilgan holda maslahatchilar esa yig`in raisining taqdimnomasi bilan saylanadilar. Fuqarolar yig`ining raisi va rais maslahatchilari, agar ularni yig`inda hozir bo`lgan fuqarolarning yarmidan ko`prog`i yoqlab ovoz bergan bo`lsa

saylangan hisoblanadilar.[20]

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlaydi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish institutlarini shakillantirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz o`z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatni qurishni maqsad qilib qo`ygan ekan, bunda hokimyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritishini mustahkamlash hamda hokimyat vakolatlarini markazdan joylarga, jamoat tashkilotlariga hamda asta-sekin fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilishi lozim, chunki fuqarolik jamiyatini qurish o`zini-o`zi boshqarish organlarini faollashtirish orqali amalga oshiriladi. Zero “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” prinsipining asosiy mohiyati ham shundan iboratdir.

O`zbekiston hukumatining mahallani rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosatidan ko`zlangan maqsad ikkita muhim vazifani hal etishni nazarda tutadi:

Birinchisi manaviy vazifa bolib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz ananalarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat;

Ikkinchi siyosiy-huquqiy vazifa bo`lib, mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat, shahar, tuman hokimlari zimmasiga yuklatilgan ko`pchilik vazifa va huquqlarni, yuqorida aytganimizdek, fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlariga ya’ni mahallalarga berib, ularning mohiyatini ko`rsatish, shu tariqa jamiyatimiz xayotini demokratlashtirishda yangi va juda muhim qadamlar tashlashdan iborat.[21]

Mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish, fuqarolik jamiyatini shakillantirish, jumladan, o`zini-o`zi boshqarish organlarining ro`lini kuchaytirishga qaratilgan keng ko`lamli va izchil islohatlar amalga oshirilmoqda.

2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisida tagdim

---

[20] O`zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent, “Adolat” 1999. №21.-B.121-124.
[21] O`zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent, “Adolat” 1999. №21.-B.121-124.

etilgan “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni Ynada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”dan kelib chiqqan holda fuqarolarning ozini-o`zi boshqarish institute – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, uning vazifalari ko`lamini kengaytirish, davlat hakimyati va boshqaruv organlari bilan o`zaro munosabatlarini yanada mustahkamlash lozimligi alohida takidlanadi.

Konsepsiyada “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi(2000y), “Fuqarolar yigini raisi va uning maslahatchilari saylov to`g`risida”gi (2003y) O`zbekiston Respublikasi qonunlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish taklifi ilgari surildi. SHuningdek mahallani aniq yonaltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash, hususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib boorish tizimidagi vazifalarni yanada kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratish, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish, oqsaqollar va ularning maslahatchilarini eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda maxallaning axamyati va ro`li oshirilishini ta’minlaydigan chora tadbirlarni nazarda tutadigan o`zgartish va qo`shimchalar kiritish lozimligi takidlanadi.

Hammamizga ma’lumki, 2011-yil may-iyun oylarida mamlakatimiz miiqyosida o`zini-o`zi boshqarish organlariga saylov bo`lib o`tdi. Mahalliy davlat hokimyati vakillik organlari, yangi viloyat, tuman va shahar kengashlari, shuningdek, Qoraqolpog`iston Respublikasi jo`qorg`I Kengesi o`z hududlarida fuqarolar yig`inlari raislarini(oqsaqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish va o`tkazilishini ta’minlashga mas’uldirlar. Bundan ko`rinib turibdiki, jamiyat tizimini shakillantirish borasida davlat hokimyati organlari jonbozlik ko`rsatib faoliyat yuritmoqda. Sababi – jamiyat va davlatning ichki tartibi, tinchlik-hotirjamligi, avvalo, mahalliy hudud aholisining kayfiyati, manfaati hamda

kelajakka intilishi bilan bog`liq ijtimoiy hodisadir.[22]

Ko`plab horijiy davlatlarning boshqaruv tiziimga nazar tashlaydigan bo`lsak, ijtimoiy vazifalar ko`lamining ko`payishi, shuningdek, mazkur masalalarning mahalliy darajada hal etilishiga ta’sir ko`rsatish haqidagi omma talabi ko`pgina ko`pgina ijtimoiy vazifalarning markaziy darajadan munitsipal darajaga o`tishiga turtki bo`ldi. O`zini-o`zi boshqarish organlariga kundan-kunga o`sib borayotgan ijtimoiy masalalarni hal qilishning muhim sharti sifatida namoyon bo`la boshladi. Jahon miqiyosida mahalalliy o`zini- o`zi boshqarishning bir necha modellari amal qilmoqda. Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Hindiston, Yangi Zelandiya va boshqa bir qancha manlakatlarda anglo-sakson tizimi Fransiya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Ispaniya va boshqa Evropa davlatlarida mahalliy o`zini-o`zi boshqarishning fransus tizimi shakillangan.

O`zbekistonda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish, ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish hamda olib borilyotgan demokratik islohatlar jarayonida faol ishtirokini taminlash uchun zarur shart-sharoilar yaratish yo`lida muhim vosita va bosqichdir. Zero, 2004-yil 29-aprel kuni qabul qilingan “fuqarolar yig`ini raisi va uning maslahattchilari saylovi to`g`risida”gi Qonun aynan shu maqsadga yo`naltirilgan.

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish tizimida saylovlarning demokratik va erkin bo`lishni taminlash, fuqarolarning saylash va saylanish huquqini aniq belgilab qo`yish, fuqarolar yig`ini raisi (oqsaqoli) va uning maslahatchhilari saylashni tashkil etish va o`tkazish bilan bog`liq munosabatlarini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda mahalliy kengashlar tamonidan saylovchi tashkil etish hamda fuqarolaryig`inlariga amaliy yordam ko`rsatish maqsadida viloyat, tuman hamda o`tkazishga ko`maklashuvchi komissiyalar hamda ishhi guruhlari faoliyat yurimoqda.

SHunisi diqqatga sazovarki, fuqarolar vakillarining yig`ilishiga xovlilar,

---

[22] Suvonqulov M. Mahalla qaryalarni qadrlash va yoshlarni zamonaviy tarbiyalash maskani // Fuqarolik jamiyati 2008.№4.-B.34.

uylar, ko`chalar, mahallalar, mavzelar va daxalardan ularda yashovchilarning umumiiy yig`ilishiqarori bilan saylanadigan namoyondalar vakil qilinadilar. Bunda vakillik meyyorini fuqarolarning o`zini- o`zi boshqarishishlari bo`yicha tegishlituman yoki shahar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Saylovdagi yana bir muhim bosqich fuqarolar yig`ini raisi vazifasiga nomzodlar korsatish xisoblanadi. Qonunga muvofiq fuqarolar yig`ini raisi vazifasiga oily malumotli, saylov kuni tegishli hududda doimiy yashash, tashkilotchilik qoobilyati, xayotiy tajriba va aholi o`rtasida obro`-etiborga ega bo`lishi kerak. Kurtboshimiz tamonidan taqdim etilgan Kosepsiyada xam oqsaqqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishi lozimligi takidlab o`tiladi. Ko`rinib turibdiki, fuqarolar yig`inii raisini saylashda aholi o``sha hududda yashayotgan fuqarolarning yaxshi-yamon kunlarida doim qo`llab-quvvatlaydigan shaxsga ovoz berayotganligini his qilmog`I lozim.[23]

O`zbekistonda demokratiyaning tayanchi hisoblangan mahalla institute mavqeyoini ko`tarish, uning jamiyat hayotida tutgan o`rnini mustahkamlashda saylovlarning oshkoralik ruhida va qonunlarga muvofiq tashkil etish katta ahamiyatha ega. Bu borada Respublikamizda keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa demokratik ananalar yanada mustahkam qaror topayotganidan dalolat beradi.

Fuqarolarning o`zinii-o`zii boshqarish organlariga saylovlarning ijtimoiy-siyosiy va tashkiliy jihatdan yuqori saviyada, milliy qonunchilik, xalqaro mayor va andozalarga to`la amal qilingan xolda o`tkazilishi O`zbekistonda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakillantirishga qaratilgan demokratik islohatlar izchil amalga oshirilayotganligining yaqqol namunasidir.

O`zbekiston Respubliksi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 9-iyulda “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari xodimlari mexnatini rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi varmoni qabul qilindi.

---

[23] Xidirov S., Zulfiqorov Sh.kuchli fuqarolik jamiyati uni shakillantirishda mahalla muhum o`rin tutadi. // Milliy tiklanish. 2012. 5 dekabr.

Unga asosan:

“Mustahkam oila yili” davlat dasturiga muvofiq hamda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari – shaharchalar, qishloqlar, ovular va mahallalar fuqarolar yig`inlarining raxbarlari va xodimlari mexnatini ularning manaviy-axloqiy trbiyalash bo`yicha ijtimoiy ahamiyatli ishlarni amalga oshirishga, oila institutini ijtimoiyqo`llab-quvvatlash va mustahkamlashga, jamiyatda barqarorlik va totuvlikni taminlashga qo`shgan xissasini e’tiborga olgan holda yanada rag`batlantirish maqsadida, 2012-yilning 1-avgustidan boshlab O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatchilarining mexnatini rivojlantirish to`g`risida” 1997-yil 13-maydagi PF 1778-son farmonining mehnat haqi bo`yicha Yagona tariff setkasi razryadlariga muvofiq rag`batlantirish koiffisenti sifatida maoshlarga 20 foizli ustama haq o`rnatilishini nazarda tutuvchi 1-bandining amal qilishi fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari diniy marifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo`yicha maslahatchilari lavozimlariga xamda “Mahalla posboni” rahbarlariga nisbatan joriy etildi.

2012-yilning 1-avgustidan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari hodimlarining lavozim maoshlariga alohida mehnat sharoitlari uchun 12 foiz miqdorda ustama haq o`rnatildi;

2012-yilning 1-avgustidan boshlab tarkibida mahallalar tashkil qilinmagan shaharchalar, qishloqlar va ovullar  fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari diniy marifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo`yicha maslahatchilarining lavozim maoshlari mehnat haqi Yagona tariff setkasi bo`yicha bir razryad oshirildi.[24]

Konsepsiyada mahalla tizimini yanada takomillashtirish, ularni davlat idoralari bilan hamkorligini izchil rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Buning uchun esa  “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida” hamda “Fuqarolar yig`ini raisi va uning maslahatchilari saylov to`g`risida”gi qonunlarga tegishli o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, ularni bugungi talab

---

[24] Xidirov S.,  Zulfiqorov Sh. Kuchli fuqarolik jamiyati uni shakillantirishda mahalla muhum o`rin tutadi. //Milliy tiklanish. 2012. 5 dekabr.

darajasida takomillashtirish zarur.

SHundan kelib chiqib, hozirgi kunda Oliy Majlis qonunchilik palatasi va tegishli tashkilotlar hamkorligida mazkur qonunlarni takomillashtirish ustidan izchil ish olib borilyapdi. Bunda, avvalo, fuqarolar yig`inlarining davlat hokimyati va boshqaruv organlari bilan o`zaro munosabati shartnomaviy kelishuv hamkorlikda alohida dasturlar, loyiihalarni amalga oshirish, hududlarni rivojlantirish dasturlari to`g`risida ahborat almashishga oid me’yorlar ko`zda tutilmoqda. Bundan tashqari, mahallalarda hususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni yo`lga qo`yishning taklif va tavfsiyalari ham muhim hisoblanadi. SHu bois “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi Qonunni takomillashtirish yuzasidan kelib tushgan takliflar tahlil etilmoqda. Fuqarolar yig`inlarining roli va mavqeini oshirish, vakolat va huquqlarini yanada kengaytirish, aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash, hususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlanirishga ko`maklashish dasturlarini islab chiqish borasidagi takliflar, ayniqsa, qo`l kelayotir. Ayni chog`da shaharchalar, qishloqlar, ovul va mahallala fuqarolar yig`inlari vakolarlarini aniqlashtirish, ularning kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini kengaytirish, aholini manzilli qo`llab-quvvatlash mehanizmlarini takomillashtirishga yo`llantirilgan me’yorlar kiritilmoqda.

“Fuqarolar yigini raisi va uning maslahatchilari saylov to`g`risida”gi qonunga ham muayyan o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish nazarda tutilgan fuqarolar yigini raisi va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish va o`tkazish bo`yicha ishchi guruhlarni shakillantirish tizimini yanada takomillashtirish hamda saylovni tashkil etilishi va o`tkazilishiga mas’ul organlarning vakolatlarini yanada yaqinroq belgilash shular jumlasidandir.[25]

Muhtasar aytganda fuqarolarning o`zini –o`zi boshqarish organi – mahallaning faoliyati kengayib borar ekan, shunga mos ravishda uning qonunchilik asosi ham takomillashtirilmoqda. Bu esa “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoilida ko`zda tutilgan ulug`vor maqsadlarni ro`yobga chiqarish,

---

[25] Xalq so`zi. 2012 yil 10-iyul.

pirovardida mahallani haqiqiy demokratiya darsxonasi va eng haqchil maskan sifatida shakillantirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi, albatta.

Mustaqillik yillarida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari va aynan mahalla institutlari har tamonlama rivojlandi. Uning huquqiy asoslari yaratildi va u bugungi kun nuqtai-nazaridan takomillashtirilib borilmoqda.

Darhaqiqat fuqarolik jamiyati institutlari orasida aynan mustaqillik yillarida rivojlangan mahalla institutining ta’limiy vahuquqiy asoslarini yanada takomillashtirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

E’tirof etish joizki mahalla institutini zamonaviiy bosqichda rivojlantirishning asosiy yo`nalishlaridan biri ushbu institutning mavqeini oshirishning omillaridan hisoblangan fuqarolar yig`inlari raisi va uning maslahatchilari saylovidir. Davlatimiz rahbari bu haqda “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” da “Fuqarolar yig`inlari raisi va uning maslahatchilari saylovi tog`risida” gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomilashtirish bo`yicha oqsaqqollar va ularning maslahatchilari eng munosib kishilar ichidan saylanishi”[26] haqidagi normalarning kiritilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida takidlab o`tgan edilar.

SHundan kelib chiqib Konsepsiyadagi g`oyalarni hayotga tadbiq etish maqsadida tayyorlangan “Fuqarolar yig`inlari raisi va uning maslahatchilari saylovi tog`risida”gi qonun loihasi Qonunchilik palatasi tamonidan birinchi o`qishda qabul qilindi. Unda quyidagi normalar kiritilishi nazarda tutilmoqda.

“Fuqarolar yig`inlari raisi vazifasiga nomzodlar O`zbekiston Respublikasi fuqarolari bo`lishi shartligi, qoida tariqasida oily mlumotli bo`lishi,saylovgacha kamida 5 yil tegishli fuqarolar yig`ini hududida yashab turgan bo`lishi, tashkilotchilik qobilyatiga, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo`lishi,

---

[26] Karmov. I. A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse’siyasi. - Toshkent, “O``zbekiston”, 2010.-B.47.

davlat organlari yoki nadavlat notijorat tashkilotlaridagi yohud xo`jalik va tadbirkorlik sohasidagi ish tajribasiga, shuningdek, hayotiy tajribaga va aholi o`rtasida obro`-etiborga ega bo`lishi kerak” bundan tashqari saylovn tashkil etish bo`yicha ishchi guruhiga “hovlilar, uylar, ko`chalarda yashovchilarning fuqarolar vakillarini saylash yuzasidan umumiy yig`ilishini tashkil etish va o`tkazish, saylangan fuqarolarning vakillari haqidagi ma’lumotlar ko`rsatilagan fuqarolar yig`ini (vakillar yig`ilishi)-ning bayonnomasini tuzish, tegishli komissiyaga tagdim etish uchun fuqarolar yig`ini raisi (oqsaqoli) va uning maslahatchilari yuzasidan takliflar tayyorlash bo`yicha qo`shimcha vakolatlar berish” kabi masalalar ham nazarda tutilmoqda.

Kiritilayotgan mazkur normalar amalda fuqarolar yig`ini raisi va uning maslahatchilari saylovi jarayonining yanada ochikligi haqida oshkoraligini taminlaydigan asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu hormalar halqimizning milliy qadriyatlarga to`la mos bo`lgan demakratik saylov tizimi yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur o`zgartish va qo`shimchalar milliy tajriba bilan birga, saylovlarga oid xalqaro tandartlar hamda ilg`or xorijiy amalyotni ham o`zida mujassam etgan. Ushbu qonunning qabul qilinishi O`zbekiston “Milliy tiklanish” demakratik partiyasining fuqarolarni o`zini-ozi boshqarish organlari, birinchi galda, mahalla institutining joylardagi tegishli masalalarni hal qilishdagi ro`lini yanada kuchaytirishga ko`maklashish kabi dasturiy maqsadlarni amalga oshirishda huquqiy asos bo`lishi shubhasiz.

Bir so`z bilan aytganda fuqarolar yig`ini raisi, va uning maslahatchilari saylovi tizimining muntazam takomillashtirilib borilishi yurtimizdaamalga oshirilayotgan mamlakatni modernizatsiya qilish va barcha sohalarda demokratik o`zgarishlarni amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir. Zero, Prezidentimiz takidlaganidek: “Mahalla – o`zini-o`zi boshqarish maktabi, tabir joiz bo`lsa demokratiya darsxonasidir.”

## I. 2. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining asosiy tamoillari.

O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining prinsiplari, bu - O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan, fuqarolarning o`zini-ozi boshqarish organlarining tabiyati bilan bog`liq mahalliy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi asosiy qoidalar to`plamidir.

O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish prinsiplarida quyidagi o`ziga xos bo`lgan obektiv qoidalar va g`oyalar o`z aksini topadi:

Bu prinsiplar – O`zbekiston Respublikasining butun hududida fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishning tashkil qilinishi va faoliyatining yagona asoslarini belgilab beradi;

Bu prinsiplar – nazariy asos sifatida, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishini tashkil qilinishi mohiyati,uning o`ziga xos hususiyatlari va belgilarini aniqlashga yordam beradi.

Bu prinsiplar – fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish tizimini, o`zini-o`zi boshqarish qoidalaridaifodalangan asoslar va qoidalarga naqadar mos ekanligini baholash mezoni sifatida namoyon bo`ladi.

Bu prinsiplar – fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishning mohiyati, belgilari va hususiyatlarini o`zida aks ettirib, o`zini-o`zi boshqarish institutining rivojlanishi izchilligini tamilaydi;

Bu prinsiplar – fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish kafolatlarini o`zida ifodalab, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasida ularning huquqlarini taminlab berishga yordam beradi.

O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishning asosiy prinsiplari o`zini-o`zi boshqarishda fuqarolarning teng huquqliligini taminlashga asoslangan bo`lib, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining demokratik konse’eiyasining “huquqiy sinchi (qobugasi)” xisoblanadi. Bu prinsiplar doirasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining tarihiy hususiyatlari, milliy va ma’naviy

qadriyatlar, urf-odatlar va ananalar hisobga olingan holda huquqiy jihatdan tartibga solinishi amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishning asosiy prinsiplarining amalga oshirilishi ularni nafaqat amaldagi qonunchilikda va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining nizomlarida huquqiy jihatdan mustahkamlanib qolmasdan, balki bu organlardagi xizmatning tashkiliy shakillari va uslublari ham bu prinsplarga mos kelishi bilan taminlanadi.

SHunday qilib fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi faoliyatining asosiy prinsplariga quyidagilar kiradi: a) demokratizm; b) oshkoralik; v) ijtimoiy adolat; g) inson’arvarlik; d) mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik; c) jamoatchilik asosidagi ozaro yordam[27].

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida demokratizim prinsipi O`zbekiston Respublikasi davlatining tub mohiyatidan kelib chiqadi. “O`zbekiston – suveren demokratik Respublika” umumhalq demokratyasi mos keladi.

Davlat qurilishining hozirgi bosqichida oldimizda murakkab va katta vazifalar turibdiki, bular davlat va jamiyatda demokratiya asoslarini izchillik bilan rivojlantirish, hokimyatni boshqarish ishlariga aholini keng qatlamlarini jalb etish orqali xal etiladi.

“Demokratiya” so`zi yunoncha “demos” – xalq, “kratos” – hokimyat so`zlarining birlashmasidan tuzilgan bo`lib, “xalq hokimyati (hokimyatchiligi)” ma’nosini bildiradi. Demokratizim prinsipida xalq hokimyati, yani ozchilikning ko`chilikga bo`ysunishi qoidasi amal qiladi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e’tirof etiladi. Xalq hokimyatchiligi deganda, hokimyatning faqat xalqqa tegishli ekanligi, davlat xalq irodasini ifodalashi va uning manfatlariga xizmat qilishi lozimligi, davlatning asosiyvazifalaridan biri inson va jamiyatning (fuqrolarning) farovonligini taminlsashga qaratilgan bo`lishikerakligi tushuniladi.

---

[27] “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi Qonun. “O``zbekistonning yangi qonunlari”. -Toshkent, “Adolat” 1999. № 21.-B.117-120.

Davlat xalq irodasini ifodalaydi va uning manfatlarga xizmat qiladi. Xalq davlat hokimyatining biradn-bir manbaidir[28].

Ma’lumki fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari davlat hokimyati tizimiga kirmaydi. Bunday sharoitda bu organlar tizimida demokratizm’rinsi’i asosiy o`rin egallaydi. CHunki fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlario`z tabiyatiga ko`ra bevosita xalq hokimyatchiligini o`zida ifoda etadi, bu oragnlarning butun faoliyati tegishli hudud aholis manfatiga va farovonligiga xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining asosiy maqsaditegishli hudud aholisining farovon hayot kechirishi va yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat bo`lib, bunda mahalliy ahamiyatga molik masalalarniamalga oshirishda aholining bevosita o`zi ishtirok etishi nazarda tutiladi. Bunday ishtirok fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga saylovlar, fuqrolar yig``ini, fuqarolarning murojatlari va boshqalarda o`z ifodasini to’adi.

Fuqarolarning o``zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida aholi keng qatlamlarining faol ishtirok etishibu organlarning eng muhim tashkiliy belgilaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishida ishtirok etishi turli shakillarda amalga oshiriladi. Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari tegishli hudud aholisini o`zini-o`zi boshqarish ishiga keng jalb qilishjarayonini uyushtiradi va yo`naltiradi.

Fuqarolarning o``zini-o`zi boshqarish organlari o`z faoliyatida aholi ishtirokini doimiy ravishda jalb etib boradi. Bu esa o`z navbatida o`zini- o`zi boshqarish organlari o`z ish faoliyatida aholining keng qatlamlarini birlashtirib turadiganjamiyatning demokratik tashkilotlardan biri eknligini bildiradi.

O`zini-o`zi boshqarish ishlariga fuqarolarni jalb etish vazifasi: a)har bir fuqaroning moddiy va ijtimoiy-madaniy hayotini yanada yahshilash; b)Fuqarolarning o``zini-o`zi boshqarish organlari faoliyaeritininhamda saylov

---

[28] O`zbekiston Res’ublikasining Konstitutsiyasi.- Toshkent. “O`zbekiston” 2015.-B.5. 7-modda.

tizimining demokratik prinsipini yanada takomillashtirish; v) Jamiyat va davlat qurilishining eng muhim masalalari muhokamasi va huquqiy aktlar loihalarini umumxalq muhokamasiga qo`yish amalyotini yanada kengaytirish;  g) davlat a’’arati faoliyati va uning tasirchanligini kuchaytirishda jamoatchilik nazorati shakillarini har tamonlama kengaytirish; d) fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari rahbar hodimlari tarkibini muntazam yangilab turish, ularning aholi oldida hisob berib turishni yanada izchil amalga oshirish yo`llari bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida aholining keng ishtiroki prinsipi hayotga izchil tadbiq etilmoqda. Bu prinsplar qator nomativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

O`zbekiston Re’ublikasining “Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari tog`risida”gi qonunining 1-moddasida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda fuqarolarning keng ishtiroki taminlanishi belgilangan. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida aholining muntazam ishtirok etishi huquqiy va tashkiliy jihatdan kafolatlangan butun bir tizim bilan ta’minlanadi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining tshkil qilinishida ham, amalga oshirilishda ham aholi bevosita qatnashadi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari hamma uchun ochiq, barcha masalalar oshkora amalga oshiriladigan, omma uchun qulay, bevosita ommaning o`zidan kelib chiqadigano`ziga xos hokimyat,xalq ommasini va uning irodasini to`g`ridan-to`g`ri va bevosita ifoda qiladigan organdir.

Fuqarolarning bevosita demokratiyaning turli shakillari – saylovlar, yig`inlar, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining xisoboti, fuqarolarning murojati va hakozolar orqali bu organlarning tadbirlarida qatnashadilar va faoliyati mazmunini belgilashda faol ishtirok etadilar.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida ishlash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarida aholining bunday doimiy iishtiroki biror doimiy funksiyani bajarish yoki bir marotabalik to’shiriqlarni otashtarzida amalga oshirilishi mumkin.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida omma ishtirokining ko`pdan ko`p va xilma-xil shkil va uslublari vujudgakeldi, bu jarayon tobora keng ko`lam kasb etmoqda.

Fuqarolarning yig`inlari, fuqarolar yig`ini faoliyatini asosiy yo`nalishlari bo`yicha komissiyalar majlislarini tayyorlash va o`tkazishda endilikda aholi tobora keng miqiyosda qatnashmoqda. Fuqarolar tamonidan ko``rib chiqish uchun aniq takliflar kiritilmoqda, turli komissiyalarda ishchi guruhlaritarkibida uarning isgtiroki taminlanmoqda.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarifaoliyatigaa aholini ommaviy ravishda jalb etishning muhim shakli, bu – aholining ko`p sonly tashabbuskor jamoatchilik organlari – ijtimoiy o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida va hakozolarda ishtirokidir.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyatiusullari va bu organlar ishiga keng ommani jalb etish uslublari mehnat jamoalari, jamoatlari tashkilotlarida shtatsiz bo`lim va boshqarmalarga vakillar saylash, bevosita demokratiyaning turli shakillaridan foydalanish, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari oldida turgan vazifalarni bajarishda jamoat tashkilotlari bilan birgalashib ishlashida namoyon bo`ladi.

Fuqarolarni xo`jalik va ijtimoiy-ma’daniy qurilishga rahbarlik qilish ishlarida ishtirokining shakillaridan biri – jamoat nazoratidir. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariishini nazorat qilish mazkur oragnlar ishi mazmuniga tasir o`tkazishning, binobarin, uni yanada yaxshilashning eng muhim yo`llari va omillaridan hisoblanadi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatinji aholi tamonidan nazorat qilinishi, bu organlarning va ularning mansabdor shaxslarining aholi va mehnat jamoalari oldida vaqti-vaqti bilan hisob berib turishlarinin o1z ichiga oladi.

Fuqarolarning “…o`zini-o`zi boshqariah organlari – mahallarning va ularning mansabdor shaxslarining jamiyat va fuqarolar oldidagi ma’sulligi demokratik harakterga ega ekanligini hamisha yodda tutish kerak. Mahallada jamo’atning hukmi asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo`ladi. Konstitutsiyada va

boshqa qonunlarda takidlanganidek, mahallalarning amaliy faoliyatiinson’arvarlik, ijtimoiy adolat va demokratiktamoillarga to`la asoslanadi. Jamiyat a’zolarining manfatlari muozanatini taminlash va himoya qilish asosiy maqsadlari hisoblanadi”.[29]

SHunday qilib, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarifaoliyatida demokratizim prinsipini mamlakatimizda demokratlashtirish jarayonnini tezlashtiris, umuminsoniy qadriyatlrni qayta tiklash, erkin fuqarolik jamiyatini shakillantirish va bu borada fuqarolar ishtirokini taminlashga xizmat qiladi.

Oshkoralik davlat va jmiyat boshqaruv tizimidagi muhim elementdir. Oshkoralik yordamida boshqaruv faoliyatining demokratizmi, boshqaruvni jamiyat nazorati ostida bo`lishi hamda fuqarolarning manfatlari, huquq va erkinliklari bilan bog`liq bo`lgan qarorlar qabul qilishdagi imkoniyatlari taminlanadi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida oshkoralik prinsipining amalga oshirilishi bu organlar faoliyatining ochiq-oshkora harakterga egaligi, ularning faoliyati to`risida fuqarolarni muntazam va doimiy ravishda habardor etib turishni bildiradi.

O`zbekiston Res’yblikasining “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonuni normalarida oshkoralik prinsipi huquqiy jihatdan va o`rganlar amaliyotida o`z ifodasini to’adi.

O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonunining 4-moddasi bu organlar tamonidan fuqarolarga o`z ish faoliyatlari to`liq va batafsil axborat berib turish majburiyatini yuklaydi. Bu muhim prinsiplarning amalg oshirilishi, avvalo fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari tamonidan o`z majlislarida ko`rilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar to`grisida muntazam ahborat berib borishni bildiradi.

Bundan tashqari, fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlarida o`zlari tamonidan qabul qilingan qarorlarning mazmuni bilan fuqarolarni tanishtirib

---

[29] Saidov A. X. Mahalla va o`zini o`zi boshqarish organlarini erkinlashtirish va zamonaviylashtirish. – Toshkent, 2001.-B.17.

boorishlari lozim. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining qarorlari, qoida tariqasida, e’lon qilingan patytdan boshlab kuchga kiradi. Bu qarorlarda fuqarolarning manfatlari, huquq va majburiyatlari oz aksini to’gan bo`lishi mumkin. Amaldagi qonunchilik fuqarolarni o`zini o`zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari tamonidan har bir manfatdor shaxsga ularning erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfatlariga dahildor xujjatlar, qarorlar va boshqa materyallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini taminlaydi.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari tamonidan o`z faoliyati to`g`risida to`ligicha va batafsil ahborot berish ananaviy tashkiliy shakillarda bo`lib, ular normativ – huquqiy hujjatlarda, fuqarolarning o`zini- o`zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarning maqomini belgilab beradigan normalarda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining nomzodlarida o`z ifodasini to’adi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining ish faoliyatidagi oshkoralikni taminlab beradigan shakillarga bu organlar mansabdor shaxslarning fuqarolar oldidagi hisoboti, ommaviy ahborot vositalar orqali chiqishlari va boshqalar kiradi.

O`zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-a’reldagi “Axborat olish kafolatlari va erkinligi to`g`risida”gi qonuniga binoan “har bir fuqaroning ahborat olish huquqi kafolatlanadi har kimning ahborotni izlash, olish, taqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tamonidan himoya qilinadi”. “…Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari … mansabdor shaxslar har kimga o`zining huquqlari va qonuniy mmanfatlariga dahldor bo`lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materyallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib yaratib berishga majburdir”.[30]

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi tizimida oshkoralik prinsipining amalga oshirilishida ommaviy ahborot vositalari katta ro`l o`ynaydi. Fuqarolar ommaviy ahborot vositalarida chiqishi, o`z fikr va mulohazalarini oshkora bayon qilish huquqigq egadir.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarifaoliyatida oshkoralik prinsipining izchillik bilan amalga oshirilishi mahalliy ahamiyatga molik

---

[30] O`zbekiston Res’ublikasining “Axborat olish kafolatlari va erkinligi to`g`risida”gi qonuni-1997-yil 24 a’rel

masalalarni hal qilishda bu organlarning ish faoliyati ustidan nazoratni amakga oshirilishida fuqarolarga zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Mahalliy ahamiyatga molik masalalar hal qilinishida fuqarolar tamonidan o`ziga xos huquq ijodkorligi tashabbusi amalga oshiriladi. Fuqarolqrning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyati amalyoti shuni ko`rsatadiki, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda muhim bo`lgan qaror loihalari (masalan, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining nizomlari) aholi tamonidan muhokama etilishi mumkin. Ma’lumki, fuqarolar yig`inida ko`riladigan turli masalalarga tayyorgarlik ochiq olib boriladi. Buning uchun aholini oldindan habardor qilish uchun kuntartibi, qaror loihasi e’lon qilinadi. O`z takliflari , mulohaza va istaklarini bildirishi uchun fuqarolarga murojat qilinadi.

Fuqarolar yig`inlarida tashkilotlar, muassasalar, korxonalar jamoat tashkiloti vakillari ham keng qatnashadilar. Qabul qilingan qarorlar va ularning mazmuni, vazifalari, bajarilish tartibi xaqida aholi habardor qilinishiga katta e’tibor qaratiladi.

Fuqarolar mahalliy ahamiyatga molik masalalar to`g`risida to`liq ma’lumotga ega bo`lganlari hamda bu masalalarni hal qilishda bevosita o`z ishtiroklarini sezgan holda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga o`z taklif, mulohaza va istaklarini bildiradilar. Qonunga ko`ra fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlaarining mansabdor shaxslari tamonidan fuqarolarning murojatlaribir oygacha bo`lgan muddat ichida ko`rib chiqiladi.

SHunday qilib, oshkoralik prinsipi, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatiniochiq va oshkora tarzda olibborishini taminlaydi.

Ijtimoiy adolat prinsipi aholi tamonidan aholining kam taminlangan tabaqalariga, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj yetim-esirlar, yolg`iz qolgan qariyalar, boquvchisini yo`qotganlar, ko`p bolali oilalar nogironlarni ijtimoiy himoya qilish zarurligini nazarda tutadi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari alohida eng yaqin tashkilot bo`lib, uning butin faoliyati aholi biln bog`liq bo`ladi. SHuning uchun bu prinsp muhim prinsiplardan biri bo`lib,  fuqarolarnin o`zini- o`zi boshqarish me’zonini belgilaydi.

Ijtimoiy adolat prinsipi fuarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari tamonidan ijtimoiy kam taminlangan fuqarolarga ularni asosiy moddiy extiyoj larine qondirish uchun turli ko`rinishdagi moddiy yordam va boshqa ko`rinishdagi ijtimoiy yordam ko`rsatishni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy adolat – ijtimoiy himoya va qo`llab quvvatlashga muhtoj fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash orqali himoya qilinishidir. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga turli sabablarga ko`ra o`z turmushini ta'minlay olmaydiganlar qaryalar, nogironlar, boquvchisini yo`qotganlar, ishsizlar yolg`izlar va boshqalar kiradi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari maqsadga yo`naltirilgan ijtimoiy siyosatning subektlari doirasiga kiradilar va o`z vakolatlari doirasida fuqarolarning yashash joyi bo`yicha ijtimoiy himoyani amalga oshiradilar.

Ijtimoiy adolat prinsipi O`zbekiston taraqqiyot yo`li besh tamoillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosat olib boorish masalasi bilan bog`liqdir.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatidagi ijtimoiy adolat prinsipi "Eng avvalo, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish el-yurtimiz hayotiga keskin salbiiy tasir ko`rsattadigan og`ir oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bolgan aholi toifalari – ko`p bolali va kam taminlangan oilalar, yolgiz keksalar, yetim-esir va nogironlar, talaba va pensioonerlarning manfatlarini har tamonlama himoya etish…"dan iborat.

Bu borada fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari har tamonlama mustahkam huquqiy asosga egabo`lgan ishonchli ijtimoiy himoya tizimini shakillantirish zarur. Ayniqsa zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini bar'o etish va uning smaradorligini oshirish dolzarb masaladir.

O``zbekistonda "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" siyosiy qurilish dasturining bosh yo`nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini mahalliy hokimyat organlariga, jamoat tizimlariga va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich to'shoroshdan iborat. Bu borada qabul qilingan normative-huquqiy hujjatlarga muvofq hamda aholi kam taminlangan

hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarini yo`naltirilgan tarzda ijtimoiy qo`llab quvvatlashga o`tilishi miunosabati bilan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari zimmasiga ijtimoiy taminotni ng bir qator turlari bilan taminlash yuklatildi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari aholi manfatlari himoyasi, yangi jamiyatda adolatli demokratik jamiyatning tayanchi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tayanchidir. O`zini-ozi boshqarish faoliyatining butun jabhalarida, jamoa o`rtasida keng qamrovli, serqirrali, kutilmagan, betakror muammo-masalalrni favqulotda tugilgan vaziyat, muhim chigallarni yechishda, ijobiy hal qilishda bevosita faol ishtirok etadi.

Ijtimoiy himoyaning bugungi kundagi usuli o`z samarasini berib, "…birinchidan, bugungi kunda odamlarni jislashtiruvchio`zaro yordam va bir-birini qollashga chorlovchi tizilma mahallalarning hyotidagi yuksak mavqeini hech kim inkor etaolmaydi.

Ikkinchidan, kuchli ijtimoiy siyosatning hayotga tadbiq etilishi milliy qadriyatlar, urf-odatlar, jamoa ruhi hisobga olgan holda amalga oshirilya'di".

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish sharoitida aholining kam daromdli qismini, muhtoj, nogironlarni kuchli ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylanmoqda.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariorqali muhtojlarga yordamberish eng oddiy, ammo samarali va oshkor vosita bo`lib, ijtimoiy ko`maklashuvning tasirchan tizimi bo`lib qoladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-avgustdagi "Kam taminlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar t to`grida"gi PF-938-son farmoniga asosan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari – mahalla zimmasiga g`oyat muhtoj bolgan (mutlaq kambag`al) odamlarni aniqlash va ularga tegishli yordamni tashkil etish vazifasi yuklatiladi.

SHunday qilib fuqarolarning o`zini- o`zi boshqarish faoliyatida ijtimoiy adolat prinsipi aholining nochor qatlamlri – keksalar, nogironlar, ko`p bolall

oilalar, qarovsiz qolgan bolalar, yetim-esirlar, o`quvchi yoshlarni qo`llab-quvvatlashni taminlaydi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida inson’arvarli prinsipi har bir fuqaroning qadr-qimmatini hurmat qailishni, kishilar o`rtasidgi munosabatlarda tenglik o`rnatish lozimligini bildiradi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining asosini odamlarning qadr-qimmati, erkinligi, qobilyatining har tamonlama namoyon bo`liishi uchunharakat qilishi,insonnng baxt-sodati, teng huquqliligi adolatli hayotni taminlashga intilish, insoniylikning barcha jihatlari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish kabilar tashkil qiladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari har bir kishining jismoniy va ma’naviy jihatdan har tamonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Kishilarni qadrlsh – inson’arvarlik prinsipining asosiy hususiyatlaridan biridir.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi – “Mahallaning tarihiy jamoa sifatid o`zining yashash tarzi mavju. Mahallalarda yer-eriga, imorati-imoratiga, darvozasi-darvozasiga tutashib ketgan hovlilda bir va undan ortiq oilalar, aka-ukalar, qon-qarindoshlar, begona kishilar yashaydilar. Ular bir-biri bilan juda yaqin aloqada bo`lishadi. Tarihiy adabiyotlarda shartli ravishda bir hovlining tort tamonidan – cha’, o`ng, orqa va old tamonidan qirqtadan bir yuz oltmishta hamkor, yaqin, hamfikr, hamdard bo`lishi aytiladi”.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari halq tafakkurining, ijodiy tashbbuskorligining , oqilona yechimining tarixiy maxsuli o`zini-o`zi boshqarishining yorqin namunasi insoniylikning, qadriyatlarimizning, milliy mafkuramizning, ma’naviyatimizning, barcha xavas qillsa, namuna olsa arziydigan fazilat va hususaiyatlari mujassam o`z ifodasini to’adi, obodonchiligi va ozodligi, hurligi jamiyat taraqqiyoti, insonning kamolto’ishi, yetuk shaxs sifatida shakillanishida halqiluvchi o`rni, tasiri bo`lgan, manaviy-madaniy tarbiya bobida betakror darsxona (maktab), dona ota-onalari, ustozlari, oqsaqqollari hamkor,

hamfikr, hamjihat, muruvvatli, shavqatli, 9ymon-etiqodli, mehr-oqibatli, adolatli maskandir.

Inson tagdiri, qadr-qimmati, xalq manfatlari, davlat va jamiyat haqida g`amho`rlik fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. SHuning uchunham bu organlar faoliyatining asosiy negizida inson’arvarlik g`oyasiga sadoqat, insonga xizmat qilish yotishi kerak.

SHunday qilib fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida inson’arvarlik prinsipi – inson’arvarlik g`oyalarini amalga oshirish, inson, uning hayoti va shaxsiy dahlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati va farovonligini hurmat qilish asoslarini taminlaydi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasining normasidan kelib chiqqan holda “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`grisida”gi Qonunniing 1-moddasiga boinoanbu organlarning vazifasi mahalliy ahamiaytga molik masalalrni hal qilishni tamiinlab berishdan iboratdir. Bu normalar fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilshda mustaqil ekanligini anglatadi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish institute faoliyatining mohiyati ham shundadir.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish huquqining normalari mahalliy ahamiyatga molik masalalrini yechishda mustaqillik prinsipini mustahkamlab, uning mazmunini tavfsiflaydigan quyidagi asosiybelgilarni ajratadi.

Birinchidan, fuqarolar tamonidan mahalliy ahamiyatgamolik masalalarni halqilish bevosita fuqarolar yig`ini, fuqarolar yig`ini kengashi, fuqarolar yig`ini faoliyatining asosiy y`onalishlari bo`yicha kamissiyalar hamda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishning saylab qoyiladigan boshqa organlari orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining tashil qilinishi va faoliyatining masalalarining nizomlarida tartibga solinadi.

Ikkinchidan, mazkur rinsi’ning amalga oshirilishi fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish iqtisodiy-moliyaviy asoslari mustaqilligini tamillashni taqazo qiladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlario`z mulki bo`lgan obktlarni vaqtinchalikyoki doimiy foydalanish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga

berishga, ijaraga to'shirishga, belgilangan tartibda o`z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek, "…qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mol-mulk bilan bog`liq boshqa bitimlar tuzishga haqlidir", bu organlar "…faoliyatining moliyaviy asosi o`z mablag`laridan, xalq de'utatlari, tuman va shahar Kengashlari tamonidan belgilangan tartibda ajratilgan byudjet mablag`laridan, yuridik vajismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag`lardan tashkil to'adi".

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining xo`jalik sohasidagi mustaqilligini to`liq taminlash borasida ijtimooiy-madaniy, komunal va maishiy xizmat sohalarida bu organlarning bajaradigan azifalari ko`paymoqda va masulyati oshirilmoqda.

Uchinchidan, amaldagi qonunchilik fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishini kafolatlab, davlat organlari tamonidan mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda ularning faoliyatiga aralashishni taqiqlqydi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari o`z tasarrufi (vakolati)ga kiradigan kiradigan masalalr bo`yicha umummajburiy bo`lgan qoidalarni o`zi mustaqil o`rnatadi. "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyat dasturini va harjatlar smetasini, hududni kom'leks rivojlantirishni taminlash, aholi punkitlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejasini tasdiqlaydi". Bunda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining va ularning mansabdor shaxslarining o`z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda yashovchi fuqarola, shuningdek, shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida joylashgan yuridik shaxslar (ularning mansbdor shxslari) tamonidan ijro etilishi shart. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining va ularning mansabdor shaxslarining qarorlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik qonunga muvofiq javobgarlikga sabab bo`ladi.

To`rtinchidan, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining oz vakolatlari doirasida mustaqilligi amaldagi huquq normalari biln kafolatlanadi. "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonunda bu organlarning o`z vakolatlari doirasidagi mustaqilligi belgilab berilgan. Bunda

fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining o`z vakolatlari doirasidagi mustaqilligi sudga shikoyat qilish huquqi bilan taminlanadi.

SHunday qilib fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik prinsipi – bu organlar foliyatini kafolatlaydi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida o`zaro yordam prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik fikri, jamoatchilik ruhi va ustuvorliklari, jamoatchilik asosida o`zari yordam, bir joyda istiqomad qiluvchi kishilarning bidamligiga tayanib, aholining turmushni yaxshilash xalqimizga azal-azaldan xos bo`lgan hususiyatlardir. Ayniqsa, mahalladoshlar o`rtasida o`zaro hurmat, tenglik o`zaro munosabatda g`amho`rlik qadirlanadi mahallalar odamlarning boshini qovushtiradi, turmush madaniyatini oshiradi, turli ijtimoiy muammolarni hal etadi. Ayniqsa, mahallada odamlar bir-biriga doimiy ravishda jamoatchilik asosida yordam qiladilar. Jamoatchilik asosidagi o`zaro yordamning turlaridan biri “Hashar” hisoblanadi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari aholining ma’lum tabaqalarini aniq yo`naltirilgan zarur ijtimoiy madad biln taminlash ishlrini keng miqyosda amalga oshirmoqda.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari (mahallalar) Respublika “Mahalla” jamg`armasi va uning joylardagi bo`linmalari bilan hamkorlikda savobli ishlar bilan muntazam shug`ullanmoqdalar. Yetim-esirlar, nogironlar va yolg`iz qariyalarga qo`shimcha moddiy yordam va tibbiy xizmat ko`rsatishga o`z hissalarini qo`shmoqdalar. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini vaqti-vaqtida o`yinchoqlar, sovg`alar, kiyim-kechak bilan siylab turadilar.

Buu yerda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlaridavlat tamonidan insonga g`amho`rlik qilishga qaratilgan himmat va sahovatni o`z vaqtida, adolatli ravishda halqqa ko`rsatmoqdalar. Bu organlar faollari ham bunday tadbirlarni qo`llab-quvvatlab keng jamoatchilikni jalb qilmoqdalar.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarijamoatchilik asosida o`zaro yordam masalasida keng kamrovli ishlarni amalga oshirmoqdalar, jumladan, mahallada biror bir oilaning uyini qurish yoki ko`maklashishda qo`ni-qo`shni, mahalla-ko`y hasharga chiqish azaldan odat tusiga kirgan. Ayniqsa, maktab, boqcha, guzarva shu kabi mahalla uchun zarur bolganboshqa binolar ham hasher usulida bunyod etilmoqda.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari – mahalla "…jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari chuqur insoniy mazmun biilan boyitilib borishiga yordam beradi. Xalqimiz, aynisa, yoshlar ma'naviy dunyosini boyitish, ular qalbini ezgulikziyosi, ma'rifat, adlu adolat, insofu diyonat nuri bilan munavvaretish mahallaning muqaddas burchidir. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarida hamisha jamoatchilik va hamkorlik ruhi mavjud".

SHunday qilib, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida o`zaro yordam prinsipi – qadriyatlarni tiklashga, aholining birdamligi, o`zaro hurmat, tenglik, adolat, diyonat, ma'rifat, ezgulik, ma'naviy yuksaklik, jamoatchilik va o`zaro hamkorlikni ta'minlashga har tamonlama yordam beradi.

## II. BOB. FUQAROLARNING O`ZINI-O`ZI BOSHQARISH ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI.

### II. 1. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholining asosiy turmush ehtiyojlari sohasini taminlsh borasidagi vazifalari.

Falsafiy qomusiy lug`atda – vazifalar (funksiyalar) deganda amalga oshirish, bajarish, faoliyat, bazi sistemalar doirasidagi obektning unga mansubligi va ro`li tushuniladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vazifalari deganda bu faoliyatning asosiy yo`nalishlari tushuniladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vzifalari uning tabiyati, xalq hokimyatchiligi tizimidagi o`rn, bu faoliyatniing maqsad va funksiyalari bilan belgilanadi.

Demokartiya va nomarkazlashtirish prinsiplariga asoslangan holda, mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalrni hal qilshda mustaqillikga ega bo`lgan fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari davlat va manfaatlarni birga qoshib olib borishga hamda o`zini-o`zi boshqarishning hududiy birliklarinng ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari amalga oshirilishini mumkin qadar smarali ta’minlashga yordam beradi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarijamiyat vadavlat boshqaruvi demokratik tizimining bir qismi sifatida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal qilish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini, aholining ijtimoiy muhafazasini taminlash kabi vazifalarni ham amalga oshiradi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vazifalari o`zining barqarorligi bilan ajralib turadi, chunki ularda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilish maqsadida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari va sholi tamonidan o`zini-o`zi boshqarishi munosabatlariga muntazam ravishda muayyan maqsad sari tasir etish kuzatiladi. Bularning barchasi mahalliy o`zini-o`zi bosqarishning ijtimoiy maqsadi, vazifasi hamda uning amalga oshirilish jarayonini tavfsiflaydigan mahalliy o`zini-o`zi bosqarish tizimining imkoniyatlari va samarasini ko`rsatadi. Xalq hokimyatchiligining amalga oshirilishida hamda o`z

vakolatlarining ro`yobga chiqarilishi va faoliyati jarayonidagi vazifaarni halqilishda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarini ro`lini hisobga olgan holda ularning quyidagi asosiy vazifalarini ko`rsatish mumkin:

1) Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasida aholi ishtirokini taminlash vazifasi;

2) Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining mulki, ular faoliyatining moliyaviy asosini boshqarish vazifasi;

3) Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi hududiy birliklarning kom’leks rivojlanishini ta’minlash;

4) Ijtimoiy-madaniy, maishiy xizmat va boshqa sohalarda aholi extiyojini qondirish vazifasi;

5) Aholi tartibini saqlashni taminlashga komaklashish vazifasi;

6) O`zini-o`zi boshqarishni amalga oshirishga doir fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfatlarini himoya qilishda vakillik qilish vazifasi;

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi tegishli hududiy birliklar aholisi tamonidan mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishni taminlashga qartilgan. SHuning uchunham Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining amalga oshirilishida fuqarolarning samarali ishtirokini taminlash uchun shart-sharoitlar yaratish fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining muhim tamonlarida biiri bo`lishi lozim,avvalo, bus hart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

a) Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining saylab qo`yiladigan organlarning mavjudligi;

b) Mahalliy faoliyatda bevosita demokratiya institutlaridan foydalanish ;

c) Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda moddiy va moliyaviy asosning mavjudligi;

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish huquqi mahalliy faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida aholi ishtirokining taminlanishida huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonunning 3-moddasiga binoan fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatiy nazar, bevosita hamda o`zlarining saylab qo`yiladigan vakillri orqali o`zini-o`zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir.

Fuqarolarning o`z hahish-istaklarini ifoda etilishining turli shakillari mavjud bo`lib, ular mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda aholining ishtirokini taminlashga yordam beradi. Aholining xohish-irodasi ifodalanishining muhimvositalaridan biri erkin o`tkaziladigan demokratik saylovlar bo`lib, ular orqali fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari tuziladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishida saylab qo`yiladigan organlarning bo`lishi shart. Fqarolarning yig`inlari (vakillik yig`ilishi)mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolar mahalliy ahamiyatga molik masalalr boyicha fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga qaror loihalarini tayyorlash bo`yicha takliflar berish huquqiga ega, shuningdek, fuqarolar bevosita o`zini-o`zi boshqarsh huquqini o`zini-o`zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda va jamooa bo`libmurojat etish orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy demokratiya tizimida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda aholi ishtirokini taminlash maqsadida tashabbuskor jamoat tashkilotlaridan foydalanish mumkin. Buning tashkil etilishi hamda amalga oshirilishi masalasi fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishi nizomlarda belgilab qo`yilishi mumkin.

Mahalliy demokratiya inistitutlarining rivojlanishi fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining saylab qo`yadigan organlari va ularning mansabdor shaxslari bilan yaqindan aloqasini taminlaydi,bu organlar faoliyatini aholi tamonidan nazorat qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishini amalga oshirishdagi ishtiroki, shuningdek, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining saylab qo`yiladigan va boshqa organlari orqali ham taminlanadi. Fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish

organlariga saylanishda teng huquq kafolatlangan. SHuningdek, fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlari xizmatiga ishga kirishda teng huquqga egalar.

Fuqarolar mahalliy ishni boshqarishda ishtirok etishlari uchun ular fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining ish faoliyati va mahalliy xo`jalikning ahvoli to`g`risida tegishli malumotga ega bo`lishlari kerak.SHuning uchun ham fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish faoliyatida oshkoralik prinspining izchinlik bilan amalga oshirilishi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni xal qilishda, bu organlar ish faoliyati ustida nazoratning amalga oshirilishida axolining faol ishtirokini taminlashda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

SHunday qilib, o`zini-o`zi boshqarish fuqarolarning davlat va mahalliy ahamiyatga molik bo`lgan ishlarni boshqarishga tayyorlashda hamda siyosiy tarbiya sifatida o`ziga xos maktab vazifasini bajaradi.

O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi Qonunining 23 va 24-moddalariga biinoan bu organlar oz mulk va moliyaviy asosiga ega.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish huquqi davlat tamonidan e’tirof etiladi. SHuning uchun ham fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari o`z mulki va moliyaviy asosidan samarali foydalanish lozimligi nazarda tutiladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qilishda fuqarolarr yig`ini asosiy o`rin egallaydi. Fuqarolar yig`ini “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining o`z mablag`larini shakillantiradi, fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi” [31]

Fuqarolar yi`gini obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va sanitariya tozalash ishlarini o`tkazish uchun o`z hududida joylashgan korxona va

[31] “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi Qonun. “O``zbekistonning yangi qonunlari”. -Toshkent, “Adolat” 1999. № 21.-B.115-119.

tashkilotlarning mablag`laridan shartnoma asosida foydalanish to`g`risida qarorlar qabul qiladi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari – fuqarolar yig`ini obodonlashtirish ishlarini o`tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni tamirlash, shuningdek, kam taminlangan oilalarnig uylari va kvartiralarini tamiirlashda yordam ko`rsatish uchun aholidan ixtiyorilik asosida mablag` yig`ish to`grisida qarorlar qabul qilish huquqqiga ega.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining mulkiy-moilaviy asaoslarini a’erativ boshqaruv masalasi yig`ini raisi (oqsaqol) tamonidan amalga oshiriladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari amaldagi qonunchilikka binoan o`z mulki bo`lgan obsektrlarini vaqtinchalik yoki doimiy foydalanishi uchun yuridik yoki jismoniy shaxslarga berishiga, ijaraga to’shirishiga belgilangan tartibda o`z tasarrufidan chiqrishi, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mol-mulk bilan bog`liq boshqa bitimlar tuzilishiga haqlidir.

“Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gii Qonunining 24-moddasida bu organlar faoliyatining moliyaviy asosi ularning “…o`z mablag`laridan, halq de’utatlari tuman va shahar kengashlari tamonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag`laridan yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag`lardan tashkil to’adi”.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari oz mablag`laridan belgilngan tartibda mustaqil foydalanadilar. Bu mablag`lar bank muassasalarida mustaqil hisob varaqda saqlanadi va olib qo`yilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig`inining kengashi moliyaviy mablag`lardan foydalanganlik ahvoli to`g`risida yilning har choragida xisob berib turadi.

SHubhasiz, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining mulki va moliyaviy asoslarini boshqarish funksiyasi biln bog`liq vakolarlarning ro`yobga chiqarilishi aholi manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirishlari uchun bu orgamlarning mulk, uni boshqarilishi va moliyaviy resurslari to`g`risida ahborot olishga haqlidir.

O`zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonunning 10, 11, 12, 13-moddalarida bu organlar tasarrufiga fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining hududiy birliklarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning kom'leks masalalari kiritilgan.

O`zbekiston Respublikasida "SHaharchalar, qishlooqlar, ovular va mahallalar fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining hududiy birliklarinidir"[32] bu hududiy birliklar hududiy ishlab chiqarish va xo`jalik jihatdan o`ziga zos bo`lgan kom'lekslarni ifodalaydi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarishining hududiy birliklarini kom'leks rivojlantirish, avvalo, mahalliy xo`jalikning samaradorligini oshirishni taminlashga, yani tegishli hududning ijtimoiy madaniy, ekologik vazifalarini bajarish, shuningdek, mehnat resurslari va boshqa mahalli resurslaridan samarali foydalanish, fuqarolarning hayot sharoiti va dam olishi uchun zarur bo`lgan shartsharoitlar yaratishni ta-minlab berishga qaratilgan.

Bularning barchasi fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari oldida turgan maqsadlarga erishishda va maxalliy xayotning boshqa masalalarini muvaffaqiyt bilan echishda zaruriy shartdir.

Fuqarolar o`zini o`zi boshqarishining hududiy birliklarining ijtimoyi-iqtisodiy jixatdan kom'leks rivojlantirishning funksiesi, avvalo, rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. Fuqrolar yig`ini fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining faoliyat dasturinii va harajatlar semetasini, hududni kom'leks rivojlantirishni taminlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlqydi. Fuqrolar yig`ini fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining hisobotlarini tasdiqlsh yo`li biln ulani amalga oshirilishini nazorot qiladi. Bunda fuqarolarning o`zini o`zi

---

[32] "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi Qonun. "O``zbekistonning yangi qonunlari". -Toshkent, "Adolat" 1999. № 21.-B.117-120.

boshqarish organlari “Hududni kom’leks rivojlantirishni” taminlash borasida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish masalasida yanglishuv va hatoliklarga yo`l qo`ymaslilari lozim. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining tadbirlar rejalari mahalliy hayotning turli sohalari rivojlanishining eng qulay shart-sharoitlarini va mutanosibligini taminlab berishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishining hududiy birliklarini kom’’leks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uning tadbirlar rejasini moddiy jihatdan taminlashga yo`naltiirilgan byudjet moliyaviy siyosati bilan bog`liq. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari o`z mablag`larini shakillantiradi, mulkiga egalik qiladi, undan foydalalanadi va uni tasarruf qiladi. Obodonlashtirish ishlarini o`tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni tamirlsh, shuningdek, kam taminlangan oilalarni uylari va kavrtiralarini taminlash uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag` yig`adi.

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishining hududiy birliklarini kom’’leks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini tegishli hududa jaylshgan korxona va tashkilotlarning faoliyati bilan ham bog`liq. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari tegishli hududa kom’’leks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ataminlash maqsadida ushbu korxona va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turishga haqlidir. “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi qonunning 10-moddasiga binoan “Obodanlashtiri, ko`kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari o`tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag`laridan shartnoma asosida foydalanish to`g`risida qarorlar qabul qiladi”. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari o`z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag` birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining bu faoliya o`z hududida joylashgan korxona va tashkilotlarning bo`ysunish tartibi mulkchilik shaklidan qatiy nazar mablag`larine birlashtirishga imkoniyat yaratadi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari bu maqsadda shartniomalar tuzish,

buyurtmalar berish hamda tadbirkorlar kengashi kabi tashkiliy shakillardan foydalanishi mumkin.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari "Mazkur hududa yashovchi fuqarolarni ish bilan taminlashga, shu jumladan, kasanachilikni tashkil etishga …dehqon va fermer xo`jaliklarini rivojlantirishga ko`maklashadi".[33]

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishining hududiy birliklarini kom''leks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni taminlash masalasi kelgusida ular faoliyatida zarur bo`lgan ma'lumotlarni to'lash, qayta ishlash va umumlashtirishni talab qiladi. "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonunning 25-moddasida buorganlar o`z faoliyatining hisobini yuritishi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy statistika va soliq organlariga hisobot tagdim etishlari belgilangan.

SHunday qilib, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarishining hududiy birliklarini kom''leks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishi ahborot taminoti sohasida tegishli mahalliy davlat organlari bilan chambarchas bo`gliqdir.

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining asosiy maqsadlaridan biri – fuqarolarrning asosiy turmushehtiyojlarini yaxshilash, aolining hayot faoliyati uchun qulay muhit yaratishdan iborattdir. Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faaoliyatida aholining asosiy turmush ehtiyojlari sohasini taminlsh muhim ro`l o`ynaydi. Bu esa mahalliy infratuzilmani rivojlantirishni alohida turli xizmatlar ko`rsatishni tashkil etishni taqazo qiladi.

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faaoliyatida aholining asosiy turmush ehtiyojlari taminlsh masalasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korhonalar, sartaroshxonalar, poyabzal tamirlash va tikish ustaxonalari halq hunarmanchiligi sehlarini va aholiga maishiy xizmat ko`rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish to`g`risida qarorlar qabul qilash orqali

---

[33] "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi Qonun. "O``zbekistonning yangi qonunlari". -Toshkent, "Adolat" 1999. № 21.-B.117-120.

o`z korxonalai, muassasalari, tashkilotlari va xizmatlarini tashkil qiladi va rivojlantiradi.

